

## XORIJIY INVESTITSIYALARING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI

**Faxxodjonova E'zoza Nodir qizi**

Jizzax politexnika institutu 3 - bosqich talabasi

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada xorijiy investitsiyalarning hozirgi kundagi ahamiyati va ularni milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan bo'lib, statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda mavjud muammolar va ularni bartaraf qilish chora-tadbirlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** xorijiy investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, investitsiya, investor, kapital eksporti, dividend, tadbirkorlik foydasi, eksport, import.

### **ECONOMICS OF FOREIGN INVESTMENTS**

### **IMPACT ON GROWTH**

### **ABSTRACT**

The article highlights the current importance of foreign investments and their role in the development of our national economy, and analyzes them based on statistical data. The article also provides information on existing problems in attracting foreign investments to the national economy and measures to eliminate them.

**Key words:** foreign investment, foreign direct investment, investment, investor, capital export, dividend, business profit, export, import.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi "O'zbekistonning Taraqqiyot

strategiyasining Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" deb nomlangan uchinchi yo'naliши, 26-maqсадида Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan.

Respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, aholining turmush darajasini yaxshilash, aholining real daromadlarini oshirish va aholi bandligini ta'minlash bugungi kunning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirishni qo'llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb qilish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishni tez sur'atlarda rivojlantirish iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturlarini amalga oshirish va iqtisodiyotga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida mahsulot sifatini oshirishga, pirovardida mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan uzviy bog'liqdir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyat va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiya, eksportbop tovarlarni o'zlashtirish, ularni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali davlatimiz iqtisodiy qudratini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **1-jadval**

2021 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Respublika va viloyatlar	Investitsiyalar hajmi, mlrd. So‘m	O‘sish sur’ati, % da	O‘zbekiston Respublikasidagi ulushi, % da
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	244962,6	105,2	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	7879,1	102,1	3,2
viloyatlar:			
Andijon	12143,7	115,3	5,0
Buxoro	18995,6	136,4	7,8
Jizzax	13224,4	104,0	5,4
Qashqadaryo	16225,1	72,7	6,6
Navoiy	16309,1	93,4	6,7
Namangan	13302,4	102,9	5,4
Samarqand	17722,8	112,0	7,2
Surxondaryo	11326,5	103,2	4,6
Sirdaryo	8708,0	116,4	3,6
Toshkent	27822,4	119,1	11,4
Farg‘ona	12920,6	108,2	5,3
Xorazm	8580,3	144,2	3,5
Toshkent sh.	57311,3	104,0	23,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari

Xulosa qilib aytganda, Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati katta bo‘lib, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)

1. Shavkat Mirziyoyev. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi “O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” farmoni
2. S.Sayfullayev, N.Komilova. Sanoat iqtisodiyoti. Toshkent, “G‘afur G‘ulom” nashri. 2019-yil. 123-128-betlar.
3. Abdullaev, A., Abdullaeva, G., & Umirova, G. (2022). СОДЕРЖАНИЕ СТРЕСС-ТЕСТИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ. InterConf.
4. Sirojiddinov I., Hojiboeva I. Hududlarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish. Iqtisodiyot va ta’lim. T.: 2017 № 4, 36 b.
5. [lex.uz](#)